

FANLARNI O‘QITISHDA INNAVATSION TEHNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

*Pedagogika va san‘atshunoslik fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
(sirtqi ta‘lim) 436- guruh talabasi
Rustamova Nargiza Ibragimovna*

Annotatsiya: Ta‘limining asosiy maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish ekan uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biridir.

Kalit so‘zlar: maktab, ta‘lim, omil, idrok, mazmun.

Annotation: The main goal of education is to increase the level of communicative literacy of students, to direct them to independent and creative thinking, and to teach them to express their thoughts correctly, fluently, and appropriately, and it is one of the reliable factors of its implementation.

Key words: school, education, factor, perception, content.

Maktab ta‘lim tizimida va hayotda fanlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Boshlang‘ich sinflardan o‘qitishda fanlarni o‘qitishda izchillikka rioya qilish zarurdir. Fanlardan beriladigan bilimlar mazmuni va mashg‘ulot turlari, albatta, bolalarning aqliy va ruhiy kamolotiga, qabul qilish darajasiga bog‘liqdir. Ona tili ta‘limining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda madaniy nutqni shakllantirishdir. Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Nutq madaniyati deganda, eng avvalo, insoniy idrokni so‘z ma‘nosini chuqur va teran anglashni, qolaversa, savodxonlikni tushunamiz.

Ta‘limining asosiy maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish ekan uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biridir. Matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o‘quv amaliyotiga izchil tadbiriq etish, o‘quvchilarni muammoli o‘quv topshiriqlari orqali izlanish va yo‘naltirish, o‘quvchi lug‘at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish (so‘zning lugaviy ma‘nolarini) fikr ifodalash (og‘zaki nutq va matn yaratish) da so‘zni tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Endigi vazifa tillarni yangi innavatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta‘lim-tarbiyani taraqqiy ettirish va barkamol avlod tarbiyasini yuqori darajada tashkil etishdan iboratdir.

Innovatsion loyihalar asosida dars o‘tish hozirgi kunning davr talabidir. Innovatsiya inglizcha innovation - so‘zidan olingan bo‘lib, yangilik kiritish, yangilik ma‘nolarini anglatadi. Hozirgi davr ta‘lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani yuzaga keltirdi. Bunday termin G‘arbiy Yevropa va AQSHda o‘tgan asrning 60-yillarida G‘.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.M. Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg‘or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. Innovatsion pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon quyidagi bosqichlarni qamrab olishi ko‘rsatiladi.

1. Yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi ham deb yuritiladi.

2. Ixtiro qilish bosqichi. Yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalga qo‘llay olish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiriq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o‘zining yangiligini yo‘qotadi. Uning samara beradigan muqobili paydo bo‘ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanilish doirasini qisqartirish bosqichi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarga fanlardan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin.

O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak.

Darsni yangi pedagogik texnologiyalar :

- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko'rgazmali qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo'llash orqali;

va hokozalardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi.

An'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish shuningdek, o'quvchilar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fan o'qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Xolisova G.M Murhanova N.Y Nutqning o'zaro ta'sir jarayonidagi analitik va diskursiv xususiyatlari. PEDAGOG jurnali. Vol 6 No. 12.2023
2. Sayidirahimova, N. S., & Kabulova, U. S. (2020). General Theoretical Aspects In Synchronical Typological Learning Of English Adverbs (Adverb Goals). Published in International Journal of Research Available at <https://edupediapublications.org/journals>. Available online: <http://edupediapublications.org/journals/index.php/IJR/P.-Indiya>, 384-398.
3. Kabulova, U.S. (2023). "Filologiya" termini haqida. Scienceweb academic papers collection.
4. Sayidmaxamadovna, K.U., & Isakovna, B.R. (2023). "Paremiya" haqida. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 773-777.
5. Sayidmaxamadovna, K.U., & Muratovna, K.Z. (2023). "Frazelogizm" atamasi haqida. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 711-715.
6. Muratovna, K.Z., & Sayidmaxamadovna, K.U. (2023). Tilshunoslarning "Frazelogik birlik" atamasi haqidagi qarashlari. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 768-772.
7. Sayidmahamadovna, S.N., Saidmakhamadovna, K.U., Komiljonovna, K.G., Azimjanovna, T.O., & Ganiyevna, M.D. (2020). Ambiguities in uzbek language-syntactic homonyms. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 6542-6548.
8. Kabulova Umida Sayidmakhamadovna. Ta'limni insonparvarlashtirish to'g'risida// JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN (Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.
9. Kabilova Zebiniso Muratovna. ENKLITIKA. FONOLOGIZATSIYA. EMFATIK URG'U.// JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN(Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.
10. Kabilova Z.M. O'zbek tilining fonosemantik vositalari// Monografiya. – Toshkent, 2024.